

RO'MOLIMIZ ORIMIZ EMASMI.

ҲИЛОЛА ТОШҚУЛОВА.

Эл. почта: toshqulovahilola@gmail.com

Қирғизистон Давлат Ўш педагогика институти 1-босқич талабаси

Тел: +998(93) 227-95-14

+998(93) 036-75-36



Anotatsiya:

Ayolni bejizga gulga qiyoslashmaydi. Uning go'zalligi, nafosati, xush ifori tabiat tomonidan har biri betakror etib yaratilgan guldan andoza olgandek go'yo. Gulni bevaqt uzib, payhon etging kelmagani kabi ayolni ham e'zozlaging asraging keladi.

Kalit so'zlar:

Rumol, axloq, xulq, odob, muomila madaniyati.

Ammo, keyingi paytda guyo ana shu go'zallikka bir oz putur yetayotgandek, nazarimda.

Albatta, mening bu gapim kimlargadir yoqmasligi tabiiy. Ammo, xotin-qizlarimizning kiyinishi, muomala madaniyati, ibo-hayosi haqidagi salbiy fikrlar kun sayin ortib borayotgani hyech birimizga sir emas. Ko'pgina opa-singillarimiz, hatto katta yoshli ayollar ham ro'mol o'rashni unutishmoqda. Aslida ayolning o'z chiroyini ro'yi-rost ko'z-ko'z qilishi, boshi ochiq, sochi yoyilgan holatiga begona nazar tushishi muqaddas dinimizda ham ma'qullanmaydi.

Yaqinda mana shu masalada bir necha opa-singillarimizii savolga tutdim.

-Siz ayol kishi ro'mol o'rab yurishi kerak degan gap- ga qanday qaraysiz?

Ta'kidlashim lozimki, bu savolimga aksariyat xotin-qizlar bepisandlik, hatto kinoya bilan javob qaytarishdi. Kimdir "Hozir hyech kim ro'mol o'ramaydi-ku!" desa, yana kimdir "Bu har kimning o'z shaxsiy ishi" deyishgacha borishdi. Biz do'ppini o'zbek yigitining ori deb bilamiz. Demak, ro'mol ham ayolning hayosi, sha'ni va andishasidan nishona. Ehtimol, mening bu gaplarim ortiqcha iddaodek tuyular, lekin, bobo va momolarimizdan qolgan shunday gap bor: -“ Yuzdan hayo ko'tarildimi, qalbdan imon yo'qolishi hyech gap emas!”

Darhaqiqat, bugun boriga shukrona aytib yashayotgan, bosh egasi sanalmish turmush o'rtog'ining topganiga qanoat qilayodigan ayollarimiz kamayib borayotir. Oramizda eri uyda qolib bir necha yillab xorijda yurganlar qancha! Bundaylar orasida hatto yoshi qirqdan oshgan, nevarali buvijonlar ham borligiga nima deysiz? To'g'ri, ular o'zga yurtlarga ishlash, pul topish uchun ketishgani, oila boqish oson emasligini ta'kidlashadi. Lekin pul topish evaziga tabiatiga o'ktamlilik, bepisandlikning nuqsi urib kelayotgan, nafaqat turmush o'rtog'i, balki uning oila- sidagilarni ham pisand qilmay qo'yayotganlar ham afsuski, tolilayotir. Ba'zi ayollar sochlarini turfa rangga bo'yash, milliyeligimizga mutlaqo yot bo'lgan ochiq-sochiq kiyimlar kiyishi bilan go'yo o'zlarini "zamonaviy", "madaniitli" ekanliklarini namoyish etishga intilishadi. Aslida esa inson uchun ichki madaniyat muhim emasmi?

Dunyodagi hyech bir millat o'z milliy madaniyatini oyoq osti qilmaydi. O'sha siz borib kelgan xorijiy davlatlarning xalqlari ham o'z urf-odati, qadriyatlarini, milliy liboslariga ega va ularni qadrlaydi. O'zligini yo'qotish esa avvalo gunoh; qolaversa, ixtiyoriy ravishda boshi berk ko'chaga kirish bilan barobardir. Keyingi paytlarda davralarda o'z turmushidan tinimsiz noliydigan, arzimagan sabab tufayli sud-huquq idoralariga qatnab ajrashish, aliment undirish yoki yuziga bir tarsaki tushirgan erining "ko'zini ochdirmoq qo'yish" ilinjida yurgan opa-singillarimiz soni kun sayin oshib borayotganining ham bosh sababi mana shu emasmikan?

CHETDAN O'RGANISH KERAK YEMAS

Ro'mol bizga chet eldan emas, ona-momolarimizdan qolgan meros. Biz ro'mol o'rashni televizor ko'rib, turk seriallarini ko'rib emas, ona-momolarimizga qarab o'rganganmiz. O'zbekning o'z ro'moli bor azaldan. Xo'sh, unda nega bu borada chet yelga taqlid qilishimiz kerak?

Bilasizmi, ro'mol o'rashda ham o'zlik bor, millatning o'ziga xosligi bor. Ayni damda aksar xotin-qizlarimiz turk yoki boshqa bir millatga taqlid qilgan holda turlicha ro'mol o'rashlarni o'zlashtirishmoqda. Qo'pol qilib aytganda, ro'mol o'rash ham modaga aylanib ketdi. Kechirasiz-u, ro'mol o'rashdan maqsad boshqalarning e'tiborini tortish, yanayam go'zal ko'rinish yoki "Qarang, manavi ro'mol o'rabdi, boshqacha bo'lib ketibdi", deya maqtashiga erishish emas, aksincha, nomahramlarning e'tiborini tortmaslik, xokisorlikka erishish, ye'tiborni tortadigan joylarini yopishdir.

MAQSAD BOSHQA, MUDDAO BOSHQA

Bugungi kunda hamma ham Islom dini arkonlariga ergashganligi, iymon yo'lini tutganligi uchun ro'mol o'rayotgani yo'q. Turk serialini ko'radi, serialdagi obrazlarning hijobi, ro'mol o'rashini o'zlashtiradi, o'shanga o'xshashga harakat qiladi. Ko'cha-ko'yda boshida ro'molni "o'zgacha fason"da o'rab, hatto yopiq kiyinib olgan, ammo o'sha kiyimi badaniga yopishib, hamma joyini ko'z-ko'z qilib yuradiganlarni ham uchratyapmiz. Shu to'g'rimi? Bundaylar fason uchun, moda uchun, "manavi yopiq kiyinib olibdi, hijobga kiribdi", degan maqtov uchun shu ishga qo'l urishadi.

RO'MOL O'RASH — O'ZBEKNING O'ZLIGI

O'zbekning ro'mol o'rashi — o'ziga xos bir udum, uning o'ziga xosliklari bor. Shunday ekan, ro'mol o'rashda ham zamonaviylikka intilish, Yevropacha "ro'mol o'rash"ni odatga aylantirish shart emas, menimcha. Ro'molni shunday o'rangki, "mana haqiqiy o'zbek qizi" deyishsin.

Internetda butun yuzini to'laligicha yopib olgan holda yuradigan yoki to'liq qoraga burkanib oladiganlarni ko'p ko'ramiz. Tabiiyki, bundaylarga nisbatan salbiy taassurot uyg'onadi bizda. O'z-o'zidan ana shunday o'ranib olganlarni ko'rganimizda ham shubhalanib qarab qo'yamiz (sababi hammamizga ma'lum). Vaholanki, ularning hammasi ham chin musulima emasdir (Yanayam Alloh bilguvchi). Shu bois aynan ulardan o'rnak olish shart emas.

Siz ro'molni shunday o'rangki, avrat joylarni yopsin, e'tiborni tortmasin, dabdababozlikka aylanmasin. Sizning ro'molingiz nafaqat diniy, balki milliy o'zlikni ham anglatib tursin. Milliylikni yo'qotmaylik.

Darvoqye, Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganidek, o'zbekning ro'moliga hyech kim qarshi chiqa olmaydi, hyech kimning bunga haqi yo'q!

Aziz opa singillar, dugonajonlar! Erkaklardan mehr-muhabbat, izzat-e'tibor, istasak, biz o'gmishimizdagi Kumushbibilarni sog'inib yashamasdan o'zimiz ularning davomchilari bo'laylik!

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. "Saodat" Respublika xotin-qizlar jurnali – 2020 yil
2. Ayollar inseklopediyasi